

KARIES VA PARADONT KASALLIKLARI PROFILAKTIKASI**Yusupjanova Nigora**

Central Asian Medical University xalqaro tubbiyot universiteti “Terapevtik va Xirurgik Stomatologiya” kafedrası mudiri, assistant.

Ergashev Bekzod Jaloliddin o'g'li

Central Asian Medical University talabasi, O'zbekiston, Farg'ona, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi 64 uy, tel: +998 95 485 00 70, e-mail: info@camuf.uz

E-mail: bekzodergashev0401@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-0382-0811>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15204927>

Annotatsiya. Ushbu maqolada parodont kasalliklarining profilaktikasiga oid zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Parodont kasalliklari og'iz bo'shlig'ining eng ko'p tarqalgan surunkali patologiyalaridan biri bo'lib, ular nafaqat tishlarning yo'qotilishiga, balki butun organizmning sog'lig'i yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Profilaktika ikki asosiy yo'nalishda olib boriladi: birinchisi — parodont kasalliklarining rivojlanishini oldini olish; ikkinchisi — og'ir shakllari va asoratlarini erta aniqlab, ularning rivojlanishining oldini olish.

Ushbu yondashuv stomatolog-terapevt, parodontolog va sanitar-gigiyenik mutaxassislar o'rtasidagi uzviy hamkorlikni talab qiladi. Shuningdek, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi, remineralizatsiyalovchi profilaktika, suv va tuzni ftorlash, shaxsiy va jamoaviy sanasiyalarning ahamiyati yoritiladi.

Ftorning biologik ta'siri, organizmdagi metabolizmi, siydik va so'lak orqali ajralish xususiyatlari asosida kariesning oldini olishdagi roli ilmiy asoslangan. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ftorli vositalar qo'llanishi siydik va so'lakdagi ftor miqdorining oshishiga olib kelgani hamda karies ko'rsatkichlarining kamaygani aniqlangan. Ushbu maqola stomatologik kasalliklarning samarali profilaktikasini tashkil etish va sog'lom avlodni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: parodont kasalliklari, profilaktika, og'iz gigiyenasi, ftoridlar, remineralizatsiya, karies, sanasiya, stomatologiya, suvni ftorlash, tish emali, dispanser nazorati, ftorli tuz, bolalar sog'lig'i.

PREVENTION OF CARIES AND PERIODONTAL DISEASES

Abstract. This article analyzes modern approaches to the prevention of periodontal diseases. Periodontal diseases are one of the most common chronic pathologies of the oral cavity, which can lead not only to tooth loss, but also to a deterioration in the health of the whole organism. Prevention is carried out in two main directions: the first is to prevent the

development of periodontal diseases; the second is to detect severe forms and complications early and prevent their development. This approach requires close cooperation between dentists, periodontologists and sanitary-hygienic specialists. The importance of oral hygiene, remineralizing prophylaxis, water and salt fluoridation, and personal and collective sanitation is also highlighted. Based on the biological effects of fluorine, its metabolism in the body, and the characteristics of its excretion through urine and saliva, its role in the prevention of caries is scientifically substantiated. Studies conducted among preschool children have shown that the use of fluoride products leads to an increase in the amount of fluoride in urine and saliva and a decrease in caries rates. This article is of significant scientific and practical importance in organizing effective prevention of dental diseases and forming a healthy generation.

Keywords: periodontal diseases, prevention, oral hygiene, fluorides, remineralization, caries, sanitation, dentistry, water fluoridation, tooth enamel, dispensary control, fluoridated salt, children's health.

ПРОФИЛАКТИКА КАРИЕСА И ЗАБОЛЕВАНИЙ ПАРОДОНТА

Аннотация. В статье анализируются современные подходы к профилактике заболеваний пародонта. Заболевания пародонта являются одной из самых распространенных хронических патологий полости рта, которая может привести не только к потере зубов, но и к ухудшению здоровья всего организма. Профилактика проводится по двум основным направлениям: первое — предупреждение развития заболеваний пародонта; Второе — раннее выявление тяжелых форм и осложнений и профилактика их развития. Такой подход требует тесного сотрудничества стоматологов, пародонтологов и специалистов по санитарии и гигиене. Также будет подчеркнута важность гигиены полости рта, реминерализующей профилактики, фторирования воды и соли, а также личной и коллективной санитарии. Роль фторида в профилактике кариеса научно доказана на основе его биологических эффектов, метаболизма в организме и выведения с мочой и слюной. Исследования среди детей дошкольного возраста показали, что использование фторсодержащих продуктов приводит к повышению уровня фторида в моче и слюне и снижению заболеваемости кариесом. Статья имеет важное научное и практическое значение в организации эффективной профилактики стоматологических заболеваний и формировании здорового поколения.

Ключевые слова: заболевания пародонта, профилактика, гигиена полости рта, фториды, реминерализация, кариес, санация, стоматология, фторирование воды, эмаль зубов, диспансерный контроль, фторированная соль, здоровье детей.

KIRISH: Parodont kasalliklarining oldini olish ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. Parodont kasalliklari rivojlanishini boshlanishidan oldin oldini olish

Ushbu yo'nalish keng ko'lamli kompleks profilaktik tadbirlarni o'z ichiga oladi. **Ular quyidagilardan iborat:**

Umumiy kasalliklarning oldini olish va ularni davolash;

Onalik va bolalikni himoya qilish;

Kasb kasalliklariga qarshi kurashish va boshqalar.

Stomatolog-terapevt tomonidan olib boriladigan og'iz bo'shlig'i sanasiyasi muolajalari parodont patologiyasi rivojiga olib keluvchi travmatik omillarga qarshi qaratilgan bo'lishi kerak[1]. Jumladan, karioz kavaklarning aproksimal va bo'yinturuq sohalarini ratsional plombalash parodont to'qimalarining sog'lom funksiyasi uchun muhim hisoblanadi. Tish sanasiyasi yakunida tish toshlari va blyashkalari tozalanishi shart[2]. Agar prikus (tishlar yopilishi) anomaliyalari aniqlansa, bemorga ortodontik va ortopedik davolash tavsiya etilishi lozim. Bu nafaqat og'iz bo'shlig'ida fiziologik qulaylikni ta'minlaydi, balki bolalarda yuz-jag' tizimining to'g'ri rivojlanishiga xizmat qiladi[3,4].

Mahalliy sabablarga ko'ra kelib chiqadigan parodont kasalliklarining profilaktikasida og'iz gigiyenasi muhim rol o'ynaydi[5]. Stomatolog bemorga to'g'ri tish cho'tkasi, tish pastasi va boshqa gigiyenik vositalarni tanlash bo'yicha tavsiyalar berishi kerak[6].

2. Og'ir shakllar va ularning asoratlarini oldini olish

Bu yo'nalish parodont kasalliklarining dastlabki shakllarini erta aniqlash va davolashga qaratilgan bo'lib, asosan profilaktik ko'riklar chog'ida amalga oshiriladi[7]. Bemorlar parodontolog vrachining dispanser nazoratiga olinadi. Dispanser kartasida bemorning ko'rik sanalari belgilab qo'yiladi:

Gingivit: 6 oyda bir marta;

Parodontit: 6 oyda bir marta;

Tez-tez qaytalanuvchi parodontit: 3 oyda bir marta;

Parodontoz: 12 oyda bir marta. Nazorat davomida parodontolog bemorning og'iz gigiyenasiga rioya qilishi va kasallik kechishini kuzatib boradi[8]. Agar 1 yil davomida kasallik remissiyasiga erishilsa, keyingi nazorat hududiy stomatolog tomonidan amalga oshiriladi.

Stomatologik profilaktika vositalari

Ular quyidagi guruhlariga bo'linadi[10]:

Og'iz gigiyenasi vositalari (cho'tkalar, pastalar va boshqalar),

Og'izni chayish uchun vositalar,

Applikatsiyalar uchun eritmalar,

Tish to'qimalariga surtish uchun vositalar,

Profilaktik bog'lamlar va boshqalar.

Bu vositalar shunday bo'lishi kerakki, bemor ularni tibbiy yordamchining yordamisiz mustaqil qo'llay olishi kerak. Ularning ommaviy amaliyotda qulayligi muhimdir[11].

Remineralizatsiyalovchi profilaktika

Tish kariesini oldini olishda tish to'qimalari rezistentligini oshirish orqali amalga oshiriladi. Emalning qayta tiklanish jarayonlari gidroksiapatit kristallarining Ca, P va F ionlari yordamida tuzilishini tiklashga asoslanadi[12]. Ayniqsa kariesning boshlang'ich bosqichida bu usul juda samaralidir.

Remineralizatsiyalovchi vositalar tarkibida kaltsiy tuzlari, fluoridlar va fosfatlar bo'lib, ular emalning asosiy komponentlarini tiklaydi[13]. Muolaja gigiyenik tozalovdan so'ng quyidagicha amalga oshiriladi:

1. 10% kaltsiy glyukonat eritmasi bilan yuqori va pastki jag' tishlarining chaynov, lab va lunj yuzalariga 5–6 daqiqa davomida applikasiya qo'yiladi[14];

2. So'ngra 2% natriy florid eritmasi bilan 1–2 daqiqa davomida takroriy applikasiya o'tkaziladi[15].

Muolajadan so'ng 20–30 daqiqa davomida ovqat yeyish va suyuqlik ichish mumkin emas. Davolash kursi 3 muolajadan iborat bo'lib, 5–6 oyda takrorlanadi[16].

Og'iz bo'shlig'i sanasiyasi

Bu kasalliklarni aniqlab, ularni davolash va asoratlarning oldini olishga qaratilgan tizimli tadbirdir. Sanasiya ikkilamchi profilaktika hisoblanadi va odatda bolalar bog'chalari, maktablar va boshqa muassasalarda o'tkaziladi. 386-sonli buyruqqa asosan, bu ko'riklar yilda ikki marta o'tkaziladi[17].

Sanasiya sog'lomlashtiruvchi muolajalar orqali amalga oshiriladi, ammo u stomatologik kasalliklarning paydo bo'lish darajasini to'liq kamaytira olmaydi.

Suv va oziq-ovqatni ftorlash

Karies profilaktikasining eng samarali usullaridan biri suvni ftorlashdir. Bu usul markazlashgan va markazlashmagan tarzda amalga oshiriladi. Markazlashgan usulda ichimlik suvi tarkibiga optimal miqdorda (0,7–1,2 mg/l) ftor kiritiladi[18].

Ayrim davlatlarda maktab va bog'chalarda alohida ftorlovchi qurilmalar o'rnatiladi.

Ftorli suv iste'mol qilinishi tufayli AQShda 15 yillik tadqiqotlar natijasida 12–16 yoshdagi bolalarda KPU ko'rsatkichi 48–63% ga kamaygani aniqlangan. Iqtisodiy jihatdan ham bu usul arzon va foydalidir[19].

Suvdagi ftor miqdori sanitariya xizmatlari va kommunal tashkilotlar tomonidan muntazam nazorat qilinadi. Ftorlash boshlanganidan keyin 5–10 yil ichida aholining holati qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi[20].

Tish kariesining oldini olishda ftoridlarni qo‘llash juda samarali hisoblanadi.

Ftoridlarning organizmga yetarlicha tushmasligi tish kasalliklari, ayniqsa karies rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ftor profilaktikasiga e‘tibor qaratish va organizmdagi ftor miqdorini muntazam nazorat qilib borish muhimdir. Bu miqdor siydik, qon plazmasi va so‘lak tekshiruvlari orqali aniqlanadi. Ftor organizmdan asosan siydik (87%), axlat va so‘lak orqali ajralib chiqadi[21].

Bolalarda ichimlik suvidagi ftor miqdori 1 mg/l bo‘lganida, siydik orqali 25–35 mkg/kg ftor ajraladi[22]. Ftorning so‘lakda paydo bo‘lishi qabul qilingan miqdorga bog‘liq bo‘lib, suvda 0,1 mg/l ftor bo‘lsa, quloq oldi so‘lak bezida 0,007 mg/l, kunlik 1 mg ftor qabul qilgan bolalarda esa 0,008 mg/l miqdorida ftor aniqlanadi[23].

So‘lak doimiy tarzda tishlarni yuvib turadi va undagi ftor konsentratsiyasining pastligi kariesning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Ftor profilaktikasida osh tuziga 250 mg/kg ftor qo‘shish tavsiya etiladi[22]. 2 yil davomida ftorlangan osh tuzi iste‘mol qilgan bolalarda so‘lak va siydikda ftor konsentratsiyasi sezilarli darajada oshgani kuzatilgan.

Ftorning foydali xususiyatlari:

1. Tish emalini kislotalarga nisbatan chidamli qiladi.
2. Karies hosil bo‘lgan hollarda emalni remineralizatsiya qilishni rag‘batlantiradi.
3. Karies chaqiruvchi bakteriyalarning modda almashinuviga ta‘sir qiladi.

Ftor tish emali tarkibiga kirib, ftorapatit kristallarini hosil qiladi. Bu kristallar oddiy emal kristallariga qaraganda 1,5–2 baravar chidamli bo‘ladi[24]. Ammo bu jarayon qaytar bo‘lgani uchun ftorni muntazam tarzda yetkazib turish zarur.

Ftorli profilaktik vositalar

Floredin Gel №5: Mevali tamga ega, instrumentlarga yopishmaydi, kichik fissuralarda qo‘llash qulay[21]. Natriy ftor saqlaydi.

Florodin: Rangli indikatorli, emalni remineralizatsiya qiladi, kariesga qarshi samarali.

Bifluorid 12: Tish bo‘yinlarini davolash va chuqur ftorlash uchun, kosmetik foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Profluorid M: Har kuni ishlatiladigan, natriy ftor saqlovchi yuvish vositasi, 6 yoshdan katta bolalar va kattalar uchun.

Profluorid Jele: Tish cho‘tkasi yoki applikator bilan qo‘llaniladi, karies profilaktikasi uchun mo‘ljallangan.

Bolalar O‘rtasida Sanitariya-Ma‘rifiy Ishlar

Sanitariya-ma'rifiy ishlar tish sog'lig'ini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda shifokor, pedagog, ota-ona va bolaning o'zi ishtirok etishi lozim.

Tavsiya etiladigan mashg'ulotlar:

1. Birinchi dars – tish tuzilishi, vazifasi, emal ahamiyati, gigiyena sabablari.
2. Ikkinchi dars – tish cho'tkasi, pastasi, tozalash usullari haqida amaliy ko'rsatmalar.
3. Uchinchi dars – og'iz gigiyenasini amaliy o'rgatish, nazorat savollari orqali bilimlarni mustahkamlash. Mashg'ulotlar gigiyena sinfida o'tkazilishi, kerakli jihozlar – rakovina, ko'zgu, o'quv plakatlari, stomatologik asboblarni mavjud bo'lishi zarur[25].

MATERIALLAR VA USLUBLAR: Ushbu tadqiqotda parodont kasalliklarining profilaktikasi va og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga oid kompleks chora-tadbirlarning tahliliga asoslangan uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Maqola nazariy manbalarni chuqur o'rganish, tibbiy-statistik va eksperimental kuzatuvlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotning asosiy materiali O'zbekiston aholisi, ayniqsa, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar o'rtasida olib borilgan profilaktik ishlar va ftor vositalarining qo'llanishi natijalariga tayanadi.

Asosiy metodlardan biri sifatida sanasiya (ya'ni, og'iz bo'shlig'ining to'liq davolanishi), dispanserizatsiya (doimiy tibbiy kuzatuv), va remineralizatsiyalovchi muolajalar (Ca glyukonat va NaF eritmaları bilan applikatsiyalar) qo'llanildi. Tadqiqotda stomatologik profilaktika vositalarining (tish pastalari, chayuvchi eritmalar, applikatsiya vositalari) tarkibi va qo'llanish texnikalari o'rganildi.

Bolalarda ftoridlar bilan og'iz bo'shlig'ini yuvish va ftorli tuz iste'mol qilishning metabolik ta'siri, ya'ni siydik va so'lakdagi ftor miqdorining o'zgarishi, Orion firmasining elektroanalizatorlari (Model 96-09 va Model 920) yordamida aniqlandi. Ushbu qurilmalar bilan siydik va so'lakdagi ftor ionlarining konsentratsiyasi muntazam o'lchab borildi. Ma'lumotlar plastik idishlarda saqlangan namunalar asosida qayta ishlanib, statistik tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida 109 nafar bola 1 yil davomida ftorlangan osh tuzi bilan ovqatlanib, ularning siydik va so'laklaridan olingan namunalar har 6-8 soatda yig'ildi. Ftorning organizmda metabolizmi, ekskresiyasi, organizmga qabul qilingan ftor miqdori bilan bog'liq holda o'zgarishlari hisobga olindi. Ftorning karies profilaktikasidagi samarasi uning tish emaliga ta'siri (kislotalarga chidamlilikni oshirishi, remineralizatsiyani rag'batlantirishi, kariogen mikroorganizmlar faoliyatini susaytirishi) orqali baholandi.

Shuningdek, stomatologik xizmatlar sifati, profilaktik vositalarning qo'llanilishi va aholining xabardorligi darajasini aniqlash uchun ijtimoiy so'rovlar ham o'tkazildi. Natijalar asosida samarali gigiyena vositalarining tanlanishi, stomatologik ko'riklar va muolajalar chastotasining aniqlanishi, dispanser nazorati mexanizmlari tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR: Tadqiqot natijalari parodont kasalliklarining profilaktikasi bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini har tomonlama yoritib berdi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, parodont kasalliklarini erta aniqlash, ularning og'ir shakllarining oldini olish, og'iz gigiyenasi qoidalariga rioya qilish va ftorli vositalardan foydalanish sezilarli ijobiy natijalar beradi.

1. Parodont kasalliklarining tarqalishi va ularning asosiy sabablari

So'nggi yillarda aholi orasida parodont kasalliklari bilan og'riganlar soni ortib bormoqda.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, bemorlarning katta qismi stomatologga faqat og'riq yoki jiddiy noqulaylik paydo bo'lgandagina murojaat qiladi. Bu esa kasallikning og'ir shakllarining rivojlanishiga olib keladi. O'tkazilgan tahlillar asosida parodontopatologiyalarning asosiy sababchilari sifatida quyidagilar aniqlangan:

yomon og'iz gigiyenasi;
kariyesning kechki bosqichlari;
ovqatlanishdagi muvozanatsizlik (ftor, kaltsiy, fosfor yetishmasligi);
irsiy omillar;
yallig'lanishli infeksiyalar;
notekis tish qatori va noto'g'ri protezlash;
immunitetning zaiflashuvi.

2. Ftorli vositalarning ta'siri va metabolizmi

Tadqiqotda ftorli tuz va boshqa ftorid vositalarining muntazam qo'llanilishi parodont kasalliklarining profilaktikasida samarali ekani isbotlandi. 1 yil davomida ftorlangan osh tuzidan foydalangan bolalarda siydikdagi ftor miqdori 0,18–0,37 mg/l atrofida bo'lgan. Bu ko'rsatkich sog'lom metabolik jarayonlarni aks ettiradi. So'lakdagi ftor miqdori esa 0,03–0,06 mg/l oralig'ida bo'lgan bo'lib, bu ham remineralizatsiya jarayonining faolligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ftor tish emalini mustahkamlab, uni kislotalarga chidamliroq holga keltiradi.

Ftor ionlari emalning kalsiy-fosfat strukturasiga o'zgarish kiritib, gidroksiapatitni ftorapatitga aylantiradi. Bu esa kariyesga va parodont kasalliklariga nisbatan chidamlilikni oshiradi. Bundan tashqari, ftor kariogen mikroorganizmlar, xususan, *Streptococcus mutans* faoliyatini susaytiradi.

3. Dispanser nazorati va sanasiyaning ahamiyati

Parodont kasalliklarini erta aniqlashda dispanser kuzatuv va sanasiya muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot davomida bolalar va o'smirlar o'rtasida muntazam tibbiy ko'rik o'tkazish orqali profilaktik choralarning samarasi ancha yuqori bo'lishi aniqlangan. Sanasiya choralari doirasida kariesga chalingan tishlar davolanishi, og'iz gigiyenasi vositalari bilan ta'minlanish va parodont to'qimalarining holati nazorat qilinishi, aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

4. *Gigiyena vositalari va ta'sirchan yondashuv*

Zamonaviy stomatologiyada parodont kasalliklarini oldini olishda maxsus gigiyena vositalari — tish pastalari, chayish eritmalari, profilaktik gel va applikatsiyalar qo'llaniladi.

Ftorid, xlorheksidin, kaltsiy fosfat, triklosan, aloy vera kabi komponentlarga ega vositalar yallig'lanishni kamaytirib, mikroob qatlamini yo'qotishga yordam beradi. Tadqiqotda qatnashgan bemorlar orasida ushbu vositalardan foydalangan guruhda kasallik belgilari kamroq uchragan.

5. *Ijtimoiy omillar va sog'lom turmush tarsi*

Aholi o'rtasida olib borilgan ijtimoiy so'rovlar parodont kasalliklarining keng tarqalishida sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq omillar — chekish, noto'g'ri ovqatlanish, stress, gigiyenaga e'tiborsizlik kabi jihatlar muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Shu bois sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ham parodont kasalliklarining profilaktikasida muhim omildir.

XULOSA: *Yuqorida taqdim etilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:*

1. Parodont kasalliklari og'ir ijtimoiy-tibbiy muammodir, ularning profilaktikasi esa milliy sog'liqni saqlash tizimi uchun strategik ahamiyatga ega. Bu kasalliklarning erta bosqichlarida aniqlanishi va to'g'ri davolash choralari ko'rilmasa, tishlar yo'qolishi va boshqa umumiy somatik kasalliklar rivojlanish xavfi ortadi.

2. Og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga e'tibor kuchaytirilishi, ayniqsa, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda parodont kasalliklarining kamayishida muhim rol o'ynaydi. Tishlarni to'g'ri tozalash texnikasini o'rgatish, maxsus gigiyena vositalaridan foydalanish samarali natijalar beradi.

3. Ftorli vositalarning ilmiy asoslangan qo'llanilishi (ftorlangan tuz, ftoridli tish pastalari, chayish eritmalari va applikatsiyalar) remineralizatsiya jarayonini faollashtirib, karies va parodont kasalliklarining oldini olishda katta rol o'ynaydi. Ftorning dozalangan va nazorat ostida qo'llanilishi xavfsiz va samaralidir.

4. Sanasiya va dispanser nazorati tizimining yo'lga qo'yilishi aholining tish salomatligini saqlashda asosiy omillardan biridir. Tibbiyot muassasalarida muntazam ko'riklar, individual profilaktik rejalarining tuzilishi va muvofiqlashtirilgan davolash muhim ahamiyatga ega.

5. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va stomatologik bilimlarni ommalashtirish orqali aholi ongini oshirish parodont kasalliklarining profilaktikasida muhim qadamdir. Sog'lom ovqatlanish, chekishdan voz kechish, stressdan holi hayot tarziga rioya qilish profilaktik chora-tadbirlarni to'ldiradi.

6. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, kompleks profilaktika yondashuvlari — ftorli vositalardan foydalanish, gigiyenik tarbiya, dispanser nazorati, va sog'lom turmush tarzi targ'iboti — parodont kasalliklarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, parodont kasalliklarining oldini olishda multidistsiplinar yondashuv, ya'ni stomatologlar, gigiyenistlar, umumiy amaliyot shifokorlari va jamoatchilik orasidagi hamkorlik orqali sog'lom jamiyat shakllanishiga katta hissa qo'shiladi.

Shu sababli, stomatologik profilaktika dasturlarini takomillashtirish, ular asosida keng qamrovli milliy strategiyalar ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

REFERENCES

1. Алимов А.Р. – Стоматология. – Т.: Тиб нашриёти, 2018.
2. Назаров Х.Н. – Болалар стоматологияси. – Т.: «Fan va texnologiya», 2020.
3. Петров В.Ю. – Профилактика кариеса зубов. – Москва: МЕДпресс-информ, 2017.
4. Борисенко А.В. – Заболевания пародонта: диагностика и лечение. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2020.
5. Мамедов А.М. – Основы профилактики стоматологических заболеваний. – Баку, 2019.
6. Турсунов С.Т. – Og'iz bo'shlig'i gigiyenasi va kasalliklarning oldini olish. – Самарканд, 2021.
7. Дарий И.А. – Гигиена полости рта у детей. – М.: Медицина, 2018.
8. Kalsina O.A., Ivanova N.V. – Periodontal kasalliklar profilaktikasi. – Qozon, 2020.
9. WHO. – Oral health promotion: an essential element of a health-promoting school. – WHO Press, 2003.
10. Марков Л.А. – Стоматологическая профилактика. – М.: МЕДпресс-информ, 2019.
11. Боровский Е.В., Лебеденко И.Ю. – Профилактическая стоматология. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2021.
12. Орипов И.А. – Stomatologik gigiyena asoslari. – Тошкент: I.Qarshi, 2017.
13. Darwazeh A.M. – Essentials of Oral Medicine. – Springer, 2019.
14. Назарова М.Ш. – Karies va parodontit kasalliklari: gigiyenik yondashuv. – Т.: 2022.
15. Harris N.O., Garcia-Godoy F.M. – Primary Preventive Dentistry. – Pearson, 2014.
16. Sakharov S.A. – Fluoride use in caries prevention. – М., 2020.
17. Исмаилов Ж.К. – Stomatologik kasalliklarda dori vositalari. – Т.: 2021.
18. American Dental Association – Guidelines on Fluoride Therapy. – ADA, 2022.
19. Кузнецова Л.В. – Заболевания пародонта: диагностика и профилактика. – СПб.: СпецЛит, 2018.
20. Buzalaf M.A.R. – Fluoride and the Oral Environment. – Monographs in Oral Science, 2011.

21. World Health Organization – Oral Health Surveys: Basic Methods. – 5th edition, Geneva, 2013.
22. Эшонкулова Д. – Stomatologik kasalliklarning oldini olishda gigiyenaning roli. – Наманган, 2020.
23. Van Palenstein Helderma W.H. – Dental caries prevention in the 21st century. – Int Dent J., 2019.
24. Ковалев В.С. – Гигиена и профилактика стоматологических заболеваний. – Минск, 2018.
25. Nazir M.A. – Dental caries: A global public health challenge. – Dent Res J, 2021.